

SHAXS MA'NAVIY YUKSALISHIDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI

Umarova Dilafruz Anvarovna ¹¹ ShDPI Asistent o'qituvchisiShahina Usmonova Xudoynazar qizi ¹¹ Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti 3-21-guruh talabasiMAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:21.05.2025

Revised: 22.05.2025

Accepted:23.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

ma'naviy
yuksalish,qadriyatlar,
axloqiy
qadriyatlar,rivojlanish,
ta'lim,jamiat.

ma'naviy yuksalish, insonning ichki dunyosini rivojlantirish, axloqiy va estetik qadriyatlarni anglash jarayoni sifatida ko'rib chiqiladi. Qadriyatlar inson hayotining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, shaxsning o'ziga xosligini, ijtimoiy o'rnini va maqsadlarini shakllantiradi. Shuningdek, qadriyatlarning shakllanishida oilaning, ta'lim muassasalarining va jamiyatning ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Muallif, shaxs ma'naviy yuksalishini ta'minlashda qadriyatlarning o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi va zamonaviy hayotda ularni saqlab qolish zarurligini urg'ulaydi.

KIRISH. Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko'plab xalqlar (elatlar, millatlar)ning o'tmishdagi, hozirdagi hamda istiqboldagi (kecha > bugun > ertaga tizimi bo'yicha) taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizasiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va axloqiy qadriyatlardan tubdan farq qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarninggina emas, balki bashariyat (insoniyat)ning mulkidir. Demak, umuminsoniy qadriyatlar eng oliy qadriyat bo'lmish odamning o'zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o'rni bilan bog'liq bo'lgan butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lgan jihatlar ekan. Umuminsoniy qadriyat jamiki insoniyatga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini, xislatlarini ifodalaydigan an'analar,

urf-odatlar, rasm-rusumlar, fikrlar, g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar va shu asosda yuritiladigan faoliyat bo'lib, undan ta'lim-tarbiya sohasida samarali foydalanish ko'plab istiqbolli muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining dunyoqarashini kengaytirishga va hattoki jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir. Axloq (lotincha <<<moralis>>> xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti- harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi. Axloqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqloq g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir. Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi. Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar dunyoqarashida milliy ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashdan ko'zlangan maqsad ularni faqat o'z qadriyatlariga tayanib yashashga o'rgatish emas, balki shu umumbashariy qadriyatlarni ham o'zlashtirib, mamlakatning o'ziga hos taraqqiyoti unga bog'liqligini hisobga olib yashashga, ishlashga da'vat etishdir. Bundan tashqari, milliy ma'naviy qadriyatlarni chuqur bilish yoshlar tomonidan mustaqillikni asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlashga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. O'zbek xalqining ibratomuz, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda katta ta'sir eta oladigan urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlari va marosimlari borki, ularni bugungi kunda oilada bolalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma'naviy taxdidlar ta'siriga tushib qolishining oldini olishdagi

muhammud vazifalarimizdan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov yurtimiz fuqorolarining go'zal hayot va baxtli kelajakka yuz tutishida tarixiy xotira, shonli o'tmish, asarlarga tengdosh qadriyatlar bilan birga bo'lishi kerak deb hisoblagan edi. Toki avlodlarimiz qaysi davrda yashamsinlar o'z o'tmishi va qadriyatlari bilan behad g'ururlansinlar. Zero, millatning dunyoda mavjudlik belgisi uning qadriyatlaridir. Dunyoda millatlar borki, barchasi o'z qadriyatlari va an'analari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Pedagog, olim, professor Oynisa Musurmonova aytganlardek, "Inson qadriyat bilan tirik, qadriyat bilan Aziz va mukarramdir". Darhaqiqat, qadriyat bu insonni o'zligini anglashga yordam beradi. Shu yo'rinda bir savol tug'iladi: "Qadriyat ozi nima?". Dastlab mana shu so'zning mohiyatini ochib berishimiz lozim deb topdik. Qadriyat - bu voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Demak, inson uchun qadriyat bo'lgan har bir narsa qadriyat ekan. Qadriyat ham o'z ichida bir qancha guruhlariga bo'linadi. Bular milliy qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlardir. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir.

Ma'naviy yuksalish jarayonida qadriyatlar insonni o'z-o'zini anglashga, o'z hayotining maqsadini aniqlashga yordam beradi. Ular shaxsning ichki muvozanatini saqlashda, ruhiy sog'lig'ini mustahkamlashda va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishda muhimdir. Qadriyatlar orqali shaxs o'zining hayotiy tamoyillarini belgilaydi va ularga amal qilishga intiladi. Ta'lim jarayonida qadriyatlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Oila, maktab va jamiyat qadriyatlarni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Yosh avlodni axloqiy qadriyatlar bilan ta'minlash, ularning ma'naviy yuksalishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida qadriyatlarni o'rganish orqali shaxs o'zining ichki dunyosini boyitadi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlanadi. Shaxsning ma'naviy rivojlanishi davomida qadriyatlarni saqlash va ularga amal qilish zarur. Bu nafaqat shaxsning o'ziga, balki jamiyatga ham foyda keltiradi. Qadriyatlarni saqlash, ularni rivojlantirish va yangi avlodlarga etkazish orqali jamiyatda barqarorlik va tinchlikni ta'minlash mumkin. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati beqiyosdir. Ular shaxsning ichki dunyosini boyitadi, axloqiy va estetik qarashlarini shakllantiradi hamda ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga yordam beradi. Qadriyatlar nafaqat shaxsning rivojlanishi, balki jamiyatning

farovonligi uchun ham zarurdir. Shuning uchun har bir inson o'z qadriyatlarini anglab yetishi, ularni saqlashi va rivojlantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Pedagogika //A.K.Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.
2. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – Toshkent, Universitet, 1998
Sulaymonov, J. B.Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Ravshanov O.A., Kushvaktov N.H. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol avlod tarbiyasi. – Jizzax: 2007. O'G'Li, J. S. S. (2021). ABU ALI IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARIDA AXLOQ MASALASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.
3. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.
4. (2021). IBN XALDUNNING „MUQADDIMA“ASARIDA
5. JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR
6. TALQINI.